ISSN (Online): 2455-3662
EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal
Volume: 11| Issue: 2| February 2025|| Journal DOI: 10.36713/epra2013 || SJIF Impact Factor 2025: 8.691 || ISI Value: 1.188

DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL KNOWLEDGE IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Uralova G.O.[1], Juraeva M.B.[2]
[1]Associate Professor of the Department of Pedagogy of Primary Education TDPU named after. Nizami
[2]TDPU named after Nizami, 1st Stage master's student in theory and Methodology of Education (Primary Education)

ABSTRACT
This article analysis the importance and methods of developing ecological knowledge among primery school students. It also serves to foster a responsible attitude toward nature and enhance their sense of environmental responsibility. The article examines innovative pedagogical approaches for developing ecological knowledge, the use of multimedia technologies and an overview and analysis of government-approved environmental legislation.
KEYWORDS. *Primary Education, Ecological Culture, Environmental Education, Interactive Teaching Methods, Socially Significant Environmental Education, Environmental Issues, Environmental Responsibility, Conservation Of Natural Resource.*

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK BILIMNI RIVOJLANTIRISH

Uralova G.O‘. Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti, PhD

Jo‘rayeva M.B. Nizomiy nomidagi TDPU, Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllangan ekologik bilimni rivojlantirish va atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat hissini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Ushbu maqolada ekologik bilimni oshirish uchun innovatsion pedagogik yonadashuvlar, multimedia texnologiyalaridan foydalanish, davlat tomonidan qabul qilingan qonun, loyihalari bilan tanishib chiqiladi va tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, ekologik madaniyat, atrof-muhitni muhofaza qilish, interfaol ta’lim usullari, ekologik tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati, ekologik muammolar, ekologik mas’uliyat, tabiiy resurslarni tejash.

РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Уралова Г.О. доцент кафедры педагогики начального образования ТДПУ им. Низами

Джураева М.Б. ТДПУ имени Низами, магистрант 1 ступени по специальности теория и методика образования (начальное образование)

Аннотация. Анализируются вопросы формирования сознательного отношения к природе у учащихся младшего школьного возраста, а также развития экологических знаний и повышения чувства ответственности к окружающей среде у учащихся младших классов. В данной статье будут представлены и проанализированы

ISSN (Online): 2455-3662
EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal
Volume: 11| Issue: 2| February 2025|| Journal DOI: 10.36713/epra2013 || SJIF Impact Factor 2025: 8.691 || ISI Value: 1.188

инновационные педагогические подходы к повышению экологических знаний, использованию мультимедийных технологий, законов и проектов, принятых государством.

Ключевые слова. Начальное образование, экологическая культура, охрана окружающей среды, интерактивные методы обучения, социальная значимость экологического образования, экологические проблемы, экологическая ответственность, сохранение природных ресурсов.

Ekologik bilim – bu tabiat va uning qonunlarini anglash, inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini baholash va ekologik muvozanatni saqlashga yo'naltirilgan bilimlar majmui hisoblanadi. Bolalarga beriladigan ekologik bilim esa ularning sog'lom hayot tarzini tanlashlariga, tabiatni asrashga va ekologik mummolarga yechim topishlariga yordam beradi. Ekologik bilim va tarbiya faqat tabiatni asrashga oid emas, balki barqaror rivojlanish tamoyillarini ham o'z ichiga oladi. Barqaror rivojlanish bu – insoniyatning bugungi va kelajak ehtiyojlarini qondirishlari uchun tabiiy resurslardan to'g'ri va oqilona foydalanishga qaratilgan konsepsiyadir. Boshlang'ich ta'limda ushbu tamoyillarni o'rgatish quyidagilalarga qaratilgan: iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish (bolalarga energiya tejash va qayta ishlangan materiallardan foydalish va tabiatga zarar keltiruvchi omillardan yiroq bo'lishga o'rgatish), biologik xilma-xillikni saqlash (turli xildagi o'simlik hayvonot dunyosini o'rganish va ularni himoya qilishga o'rgatish), chiqindilarni boshqarish (bolalarga plastic va boshqa turdagi buyumlarni qayta ishlashga o'rgatish).

Hozirgi zamonda ekologik muammolar butun jahon miqiyosida dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida yosh avlodning ekologik bilimlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bolalik davrida to'g'ri berilgan ekologik bilimlar ularning kelajak hayotida ekologik mas'uliyatni his qilgan holda yashashlariga asos bo'la oladi va jamiyatda ekologik madaniyatni yuqori pog'onaga ko'tarilishiga, ekologik muammolarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni yo'lga qo'yishga yordam beradi. Ekologik bilimga ega bo'lish faqat oila uchun emas jamiyat uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik bilim va tariya berish bo'yicha qator davlatlarda yoshlarga ekologik bilim berishning qator innovatsion modellari ishlab chiqilgan va amalda sinalmoqda. Masalan: Finlandiya mamlakatida ekologik ta'lim maktab o'quv dasturining asosiy qismi sanaladi. Fin mevalarini ekish va parvarish qilish, yog'ochdan qurilgan uylardan foydalanish kabi amaliy mashg'ulotlar bolalarni tabiatga yaqinlashishga o'rgatadi. Shvetsiyada esa "Ekologik maktab dasturi" mavjud bo'lib, bu dasturdga muvofiq maktab binosi energiya tejash texnologiyalari bilan jihozlangan, chiqindilar qayta ishlanadi va bolalar har bir faoliyatining atrof muhitga qay darajada ta'sir etishini his qiladilar. Germaniyada esqa "ekologik klublar" tashkil etilgan, ularda bolalar tabiatni o'rganish bilan birga, ekologik loyihalarni amalga oshirishga jalb etiladi. Masalan, bolalar plastik chiqindilarni qayta ishlash loyihalarini tashkil etadilar. AQSH da esa ekologik ta'lim STEAM ta'limi bilan interatsiya qilinadi. Bunda texnologiya va matematika bilan bog'liq ekologik loyihalar amalga oshiriladi. Bundan tashqari ko'plab maktablarda "Zero Waste" (Nol chiqindilar) dasturi amalga oshiriladi, bolalar chiqindilarni ajratish va qayta ishlashni o'rganadilar.

Bugungi kunda yurtimizda ham ekologik bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan qonunlar qabul qilinib loyihalar ishlab chiqilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonunining 4-moddasida barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologik ta'limning majburiy ekanligi qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra ekologik ta'limning asosiy maqsadi aholining barcha qatlamlari jumladan, umumta'lim maktablari va kasb-hunar kolleji o'quvchilarida, oliy ta'lim muassasalari talabalarida atrof-muhitni muhofaza qilish muammolariga mas'uliyatli va ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 434-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasida Ekologik Ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlangan. Ushbu konsepsiyaning qator ustuvor yo'nalishlari mavjud bo'lib quyidagilardan iborat:

- uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta'lim tarbiya jarayoniga uzluksiz bosqichma-bosqich tatbiq etish va shu asosda ekologik ta'limning samaradorligini yuqori bosqichlarga ko'tarish;
- ta'lim tizimini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etishdan kelib chiqib takomillashtirish;
- ta'lim oluvchilarning e'tiborini global ekologik muammolarga qaratish orqali ularda ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbaalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas'uliyatini kuchaytirish;
- ekologik ta'limning smarali shakllari va metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etish;
- ekologik ta'lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish ustuvorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnik va axborot bazasini yaratish;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta'lim sohasining o'zaro hamkorligini rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar ta'kidlab o'tilgan.

Bundan tashqari 2025-yilning yanvar-mart oylarida "Siz ekologiyaga oid qonunlarni bilasizmi" nomi ostidagi respublika ko'rik-tanlovi o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu tanlov ekologik qonunchilik bo'yicha bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning ekologik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik ta'lim berishning asosiy maqsadi ularning tabiatga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish bo'lib, bolalar atrof-muhitni asrab avaylashga, tabiat qonunlarini tushunishga va ekomas'uliayatni his qilishga o'rganishlari kerak. Ekologik ta'limning bir qator muhim

ISSN (Online): 2455-3662
EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal
Volume: 11| Issue: 2| February 2025|| Journal DOI: 10.36713/epra2013 || SJIF Impact Factor 2025: 8.691 || ISI Value: 1.188

jihatlari mavjud bo‘lib bular, tabiat va inson o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash, ekologik muammolar haqida bilim olish, ekologik madaniyatni shakllantirish, amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirsh kabilarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jihatlarni o‘zlashtirish orqali o‘quvchilar atrof-muhitni insonga va aksincha insonlar faoliyatining atrof-muhitga ta’siri haqidagi bilimga ega bo‘ladilar. Havo, suv ifloslanishi, chiqindilar muammosi, o‘rmonlarning kesilishi kabi ekologik muammolar haqida tushuncha hosil qiladilar va toza havo, suv, yashil makonlarni saqlashning ahamiyatini tushunib, ekologik xulq-atvorni rivojlantirishadi va chiqindilarni saralash, tabiatni muhofaza etish tadbirlarida faol ishtirok etish kabi amaliy faoliyatlar orqali ekologik ong shakllanib rivojlanadi.

Kichik sinf o‘quvchilarining ekologik bilimini yaxshiroq o‘zlashtirishlari uchun dars jarayonida turli metodlardan foydalanishlari zarur. Masalan:

- Tabiat bilan tanishtirish: bunda bolalar atrof-muhitni amaliy tarzda o‘rganishlari kerak. Masalan, bog‘ga sayohat qilish, suv havzalarini kuzatish, o‘simlik va hayvonlarni bevosita kuzatish orqali ularning tabiatga nisbatan qiziqishlari ortadi.
- O‘yinli metodlar: ekologik mavzularga oid o‘yinlar, testlar, viktorinalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.
- Amaliy mashg‘ulotlar va eksperimentlar: bolalar o‘zlari o‘simlik ekish, daraxt parvarish qilish, chiqindilarni saralash kabi amaliy faoliyatlarda qatnashishlari kerak. Bu ularda ekologik mas’uliyatni oshirishga xizmat qiladi.
- Rivojlantiruvchi texnikalar va multimedia vositalari: annimatsion filmlar, ekologik muammolarga qaratilgan kompyuter o‘yinlari orqali bolalar ekologik bilimlarni osonroq tushunib o‘zlashtiradilar.

Shuningdek, ekologik tarbiya faqat maktablarda emas oilada ham davom ettirilishi lozim. Ekologik ta’limda oila institutining ham o‘rni muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni ekologiya va ekologik muammolar bilan tanishtirish uchun oila va jamiyat o‘zaro hamkorlikda ish olib borishlari uchun sxemali loyihalar ishlab chiqish zarur. Bugungi kundagi har bir oiladagi muhim vazifalardan biri bu yosh avlodning ongida kichikligidanoq ekologik ong va madaniyatni shakllantirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishlarini o‘rgatish, tabiiy resurslarni tejash va kelgusi avlodlar uchun yetkazish va eko muhitni zararlashi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlarni oldini olishga o‘rgatish zarur.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. *Mirziyoyev. Sh.M. “Ta’lim to‘g‘risida qabul qilayotgan qaror va farmonlar nutqi 2023-yil 11-sentyabrida “O‘zbekiston 2030 strategiyasi to‘g‘risida” gi 158-son farmonidagi ta’lim to‘g‘risida fikrlari.*
2. *Uktamovna, U. G. (2022, December). Social-historical basics of the development of ecological-valeological culture in future primary class teachers. In Conference Zone (pp. 190-196).*
3. *O‘ktamovna, U. G. (2022). Ekologik-valeologik madaniyatni rivojlantirish muammolarini tadqiq etishga nisbatan metodologik yondashuvlar. Conferencea, 40-44.*
4. *Oktamovna, U. G. (2022). Formation of valeological culture in primary school pupils. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(5), 220-223.*
5. *Oktamovna, U. G. (2022). Formation of valeological culture in primary school pupils. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(5), 220-223.*
6. *Bisht, Y. S., Alzubaidi, L. H., Gulbakhor, U., Yuvaraj, S., Saravanan, T., Kumar, R. S., & Dari, S. S. (2024). Legal Framework for Energy Transition: Balancing Innovation and Regulation. In E3S Web of Conferences (Vol. 540, p. 13015). EDP Sciences.*
7. *Дехканова Маъмура Улмасовна, Абдуллаева Дурдона Уктам кызы ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНИВАНИЮ УЧЕБНЫХ ДОСТИЖЕНИЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING ISSN: 2996-5128 (online) | ResearchBib (IF) = 9.918 IMPACT FACTOR Volume-3 | Issue-1 | 2025 Published: |30-01-2025 | https://doi.org/10.5281/zenodo.14751834*
8. *Uralova, G., & Rajabova, Z. (2023). Content of modern technology and methods in education. Academic Integrity and Lifelong Learning (France), 4, 5-8.*
9. *Uralova, G. (2023, September). Swot tahlilidan foydalanib bo ‘lajak boshlang ‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik-valeologik madaniyatni rivojlantirish. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 2, pp. 49-52).*
10. *Дехканова Маъмура Улмасовна МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР НА УРОКАХ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING ISSN: 2996-5128 (online) | ResearchBib (IF) = 9.918 IMPACT FACTOR Volume-3 | Issue-1 | 2025 Published: |30-01-2025 | https://doi.org/10.5281/zenodo.14751828*
11. *www.ziyonet.uz*
12. *Lex.uz*